



## FAN VA TABIAT BILAN TANISHTIRISH ORQALI MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARINI INTELLEKKTUAL IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

---

*Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi  
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi*

**Annatotsiya:** Inson tabiat mahsulidir. Insonni tabiat yaratgan, kamol toptirgan. Shunday ekan. biz tabiatni e'zozlashimiz, unga to'gri munosabatda bo'lib, tabiatni yana ham ko'rksamligiga, abadiyligiga o'z hissamizni qo'shishimiz zarur. Yosh bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash turli omillar asosida amalga oshiriladi. Buning eng samaralisi maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishdir. Sababi inson go'dakligidanoq, tabiat qo'ynida o'sadi, ulg'ayadi kamol topadi. Bolani go'dakligidan boshlab tabiatdan zavq olishga, tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatib borishimiz zarur.

**Kalit so'zlar:** Табиат, мактабгача таълим, инсон, гўдаклик, ташкилот, интеллектуал, фан, самара

### PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING INTELLECTUAL ABILITIES OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE THROUGH INTRODUCTION TO SCIENCE AND NATURE

**Annotatsiya:** Человек-продукт природы. Человек создан природой, созрел. Так что. мы должны береч природу, относится к ней правильно и вносит свой вклад в ее еще большее великолепие, вечность. Всестороннее созревание и воспитание маленьких детей происходит на основе различных факторов. Наиболее эффективным из них является приобщение дошкольников к природе. Причина в том, что человек с младенчества, на лоне природы растет, взрослеет и взрослеет. Необходимо с младенчества приучат ребенка наслаждаться природой, правильно относится к природе.

**Ключевые слова:** Природа, дошкольное образование, человек, младенчество, организация, интеллект, наука, эффективность

### FORMATION OF INTELLECTUAL CAPABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN BY INTRODUCING THEM TO SCIENCE AND NATURE

**Annotation:** Man is a product of nature. Man was created by nature, perfected. So it is. it is necessary that we honor nature, treat it with the right attitude and



contribute to the even more splendor, eternity of nature. Comprehensive education and upbringing of young children is carried out on the basis of various factors. The most effective of this is to introduce preschool children to nature. The reason is that from infancy, a person grows up, grows up in the bosom of nature. It is necessary that we teach the child from infancy to enjoy nature, to have the right attitude towards nature.

**Key words:** Nature, Preschool Education, man, infancy, organization, intellectual, science, efficiency

Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarni rivojlantirish, ularda tabiatga nisbatan ijobjiy tuyg‘u, qarash va harakatlarning shakllanishini ko‘zda tutadi-ki, ular mahalliy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashib ketadi. Bolalarni tabiat haqidagi bilimlarini rivojlanishi tabiatni saqlab qolish, uning umrini uzaytirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda tabiatshunoslikning roli katta. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishni bog‘cha yoshidan boshlamoq kerak. Shunga ko‘ra bolalar bog‘chalarida murg‘ak qalblarga ta‘lim-tarbiya berayotgan tarbiyachilarining oldilarida eng muhim vazifalaridan biri ham bolalarning tabiat go‘zalliklarini ko‘ra bilishi, uni sevishi, tabiatda yuz beradigan voqeа-hodisalar haqida to‘g‘ri tushunchaga ega bo‘lishi, qolaversa tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Yosh avlodni yetuk mutaxassislar, aqlan, ruhan kamol topgan, o‘z Vatanini sevuvchi, uni e’zozlovchi inson qilib tarbiyalashda ushbu sohaning o‘rni beqiyos. Bola shaxsining muhammad shakllanishida tabiat, unda bo‘ladigan voqeа hodisalar, tabiat qonuniyatları muhim rol o‘ynaydi. Bolalar mana shular bilan tanishar ekanlar ham aqlan, ham axloqan, ham jismonan, ham ilmiy dunyo qarashlari mujassamlanib shakllanib boradi va ular tabiatini asrash, ehtiyyot qilish va muhofaza qilish ruhida tarbiyalanadilar. Inson tabiat mahsulidir. Insonni tabiat yaratgan kamolga yetkazgan. Shunday ekan, biz tabiatni e’zozlashimiz, unga to‘gri munosabatda bo‘lib, tabiatni yana ham ko‘rkamligiga, obodonlashtirish ishiga o‘z hissamizni qo‘sishimiz zarur. Yosh bolalarni har tomonlama kamol topshitirish va tarbiyalash turli omillar asosida amalga oshiriladi. Buning eng samaralisi maktabagacha yoshdagи bolalarni tabiat bilan tanishtirishdir. Sababi inson go‘dakligidanoq tabiat qo‘ynida o‘sadi, ulg‘ayib kamol topadi. Bolani go‘dakligidan boshlab tabiatdan zavq olishga, tabiatga nisbatan to‘gri munosabatda bo‘lishga o‘rgatib borishimiz zarur.



Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri ekologik muammo. Shu sababdan ham bolalar bog‘chalarida ham ekologik ta’lim-tarbiya berishga aloqida e’tibor berilmoqda. Tabiat bilan tanishtirish metodika fanida talabalarga ekologik ta’lim-tarbiya berish usullari, Qizil kitob haqida qisqacha ma'lumot va «Qizil kitob» ga kiritilgan noyob o‘simplik va hayvonot olami haqida ham bilim berishga katta o‘rin berilgan. Shuningdek, talabalar bolalar bog‘chasidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish sohasidagi yangi tajribalarni ham o‘rganib olishlari zarur. Buni ular o‘sha bog‘chalarda amaliyatda bo‘lgan davrlarida o‘rganadilar. Bolalarni tabiat qonunqoidalari bilan tanishtirishning ahamiyati shundaki, ularning to‘g‘ri o‘sib ulg‘ayishiga, tabiatda bo‘ladigan voqeа-hodisalarni ilmiy asosda tushunishga olib keladi. Bu bolaning shakllanishida, tabiatga, ona-Vatanga, tabiat boyliklariga bo‘lgan mehr-muhabbatni oshiradi. Darhaqiqat, tabiatni muhofaza qilish ayrim kishilarning ishi deb qaralmasdan barchamizning ishimiz ekanligini esdan chiqarmasligimiz kerak. Bog‘cha yoshidagi bolalarning har tomonlama kamol topishida tabiat bilan tanishtirishning o‘ziga xos tarbiyaviy xususiyatlari bor. Bu jarayon turli vositalar, metodlar orqali amalga oshiriladi. Tarbiat rang–barang. Uning imkoniyatlari ham cheksiz. Biz, tarbiyachilar, ana shu rang-baranglikni, imkoniyatlarni ko‘ra bilishimiz, ulardan tarbiya jarayonida oqilona foydalanishimiz kerak. Biz nima uchun bolalarni har tomonlama kamol toptirish kerak deymiz. Chunki inson organizmining imkoniyatlari beqiyosdir. Bu imkoniyatlar ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda ko‘proq foizini tashkil etadi. Faqat biz tarbiyachi-murabbiylar uni vaqtida parvarish qilsaq, uning o‘sib voyaga etishi uchun sharoit yaratsak u, albatta, kurtak yozib, hosil beradi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi bog‘cha sharoitida xilma-xil bo‘lib, bunda bolalarning xususiyatlari, tabiat haqidagi tushunchasi hisobga olinib, elementar tushunchalardan tortib, bolalarga mos eng murakkab tabiat haqidagi tushunchalarni va tabiatda bo‘ladigan voqeа-hodisalarni bilib olishga o‘rgatadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasining ana shunday o‘ziga xos shakllari bilan chegaralanmasdan, mavjud o‘zgartirish, yangi ish shakllarini ishlab chiqish, hayot tajribalarini umumlashtirib har bir tarbiyachi o‘zining yashaydigan muhiti, sharoitiga mos usullarni topib amalda qo‘llashlari kerak. Har bir tarbiyachi ijodiy izlanuvchan, kuzatuvchan, tabiatdan ilhom oladigan, hayotda dadil qadam tashlaydigan bo‘lmog‘i kerak. Bugungi talaba- ertangi mutaxassis. Shunday ekan, hozirgi talabalarga qo‘yilayotgan talab yanada kattadir. Chunki hayotimiz doimo rivojlanishda, fan-texnika, ta’lim-tarbiya sohasida yangi-yangi qirralar ochilmoqda.



Fan – texnika taraqqiyoti jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolish dolzARB muammolardan bo‘lib hisoblanadi. Bu masala mustaqil davlatimiz siyosatida o‘z ifodasini topib, unda insonni o‘rab turgan atrof muhit, jamiyat bilan uyg‘unligini ta‘minlash ham nazarda tutilgan. XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan ekologik ta‘lim tizimi o‘quv fanlari doirasida tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan tejab-tergab unumli foydalanishga doir bilimlar hajmini belgilash va uni o‘qitishning samarali shakl va metodlarini qo‘llashni taqoza etdi. Zero, atrof muhitga ongli munosabat natijasida ekologik madaniyat shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, ekologik savodxonlikni tarkib toptirishdan boshlab, bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonni oqilona tashkil etishga yo‘llaydi. Ekologik ta‘lim muammolariga doir qator Bitiruv malakaviy ishlar amalgalashirilgan. Ammo bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirish, xususan bu muammoni oliv o‘quv yurtlari Bolalarida olib borish nazardan chetda qolgan. Shunga ko‘ra maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bo‘lajak tarbiyachilarda atrof muhitga bo‘lgan ongli munosabatni tarbiyalash va bu borada milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta‘limga ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida yondashuvni tadqiq qilish bilan bog‘liq hal etish zaruriyati paydo bo‘ldi. Bu zaruriyat istiqbolga yo‘naltirilgan hamda inson bilan tabiat o‘rtasidagi aloqadorlikni tasdiqlaydigan ekologik madaniyat munosabatlari yotadi. Birinchi navbatda shaxsning tabiat bilan aloqador bo‘lgan me‘yor munosabatlarni qay darajada anglab olishga bog‘liqdir. Bularning barchasi milliy-tarixiy merosimizni, boy qadriyatlarimizni o‘rganmasdan chuqur va mustahkam bilimga ega bo‘lmasdan amalgalashirildi. Lekin egallangan bilimlar shaxsning amaliy faoliyatida namoyon bo‘lmasa maqsadga erishib bo‘lmaydi. Mazkur faoliyat turlari ilg‘or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan savol-javob mashg‘ulotlari, seminarlar, laboratoriya ishlari, Bitiruv malakaviy ish, kuzatishlar olib borish, chizmalar chizish, hisobotlar tuzish, ekologik kundalik yuritish, ma‘ruzalar bilan chiqish, nazorat ishlari, insho va referatlar yozish, ijodiy muhokama, ekologik sayohatlarni tashkil etish yo‘li bilan amalgalashirildi va o‘zining ijobiy natijalarini berdi. Bu borada bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishga tizimli yondashuv va ta‘limning ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tabiat haqidagi bolalar kitobi tarbiyachilar uchun katta qiymatga egadir. U kuzatilayotgan joydan chetga olib chiqadi va shu orqali bolalarning tasavvurlarini kengaytiradi, bolani bevosita idrok etolmaydigan hodisalar bilan tanishtiradi. Kitob yordamida boshqa iqlim zonalaridagi tabiat hodisalari, hayvon va o‘simliklarning



hayoti haqida bilish, predmet va hodisalar haqidagi mavjud tasavvurlarni aniqlash hamda konkretlashtirish mumkin. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda jonsiz tabiat hodisalarini ochib beradi, tabiatda mavjud bo‘lgan aloqa va munosabatlarni aniqlashga yordam beradi. Bunda Q. Hikmat, Po‘lat Mo‘min, Ilyos Muslim va Q. Muhammadiylarning tabiat haqidagi she‘rlari, ertaklaridan ham keng foydalanish mumkin. Tabiatshunoslik kitobidan maktabgacha yoshdagি bolalar bilan bo‘ladigan ishda turli maqsadlarda foydalaniladi. Bolalar oldiga vazifa qo‘yish, bo‘lajak kuzatishga qiziqish uyg‘otish uchun kuzatishdan oldin kichik hikoya, ertak aytib berish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ёзиева, У., & Абдиева, Ф. (2021). Maktabgacha ta’lim tashkiloti samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari. Общество и инновации, 2(11/S), 111-114.
2. Abdieva, F. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ МАДАНИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Science and innovation, 1(B8), 2154-2156.
3. qizi Abdiyeva, F. F. (2023, January). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV MADANIYATINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 397-400).
4. Abdieva, F. (2022). IMPROVING THE MANAGEMENT CULTURE OF DIRECTORS OF PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANIZATIONS. Science and Innovation, 1(8), 2154-2156.
5. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O ‘STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).
6. Jumaniyazova, Z. R. (2023). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH KARAKALPAK FOLK GAMES. European International Journal of Pedagogics, 3(01), 9-15.
7. Жуманиязова, З. Р. (2021). ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАР ВА УЛАРНИНГ ЯРАТИЛИШИ: Жуманиязова Злиха Реймовна Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг



малакасини ошириш институти мактабгача таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 119-122.

8. Namazbayeva, L. (2023). CONTENT FACTORS AND PRINCIPLES OF PREPARING FUTURE EDUCATORS FOR RESEARCH ACTIVITY. European International Journal of Pedagogics, 3(02), 19-30.
9. Намазбаева, Л. З., & Латипова, Л. С. (2023). ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННОМ РАКУРСЕ ВОСПРИЯТИЯ. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(4), 84-91.
10. Sadikova, D. (2022). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL KACHESTV STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATION ON THE BASIS OF INNOVATIVE EDUCATION TECHNOLOGY-AS AN ACTUAL EDUCATIONAL PROBLEM. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(06), 46-50.